

O'ZBEKİSTONDA YOSHLAR İJTİMOİY-SİYOSİY FAOLLIGINI OSHIRİSHDA MADANIYAT VA MAFKURAVİY OMILLARNI O'RGANİSHNING NAZARIY ASOSLARI

Yusupov Axrorjon Qurbonovich

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Tel.99891-156-96-30

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2024-yil

Jurnal soni: 11

Maqola raqami: 25

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.963>

KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/
keywords

Yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligi, siyosiy madaniyat, siyosiy mafkura, inson manfaatlari, siyosiy faoliyat, siyosiy ong, lobbizm, fuqaroviy faollik.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Mustaqillik yilarida O'zbekistonda yoshlarning siyosiy madaniyatini rivojlantirishning mafkuraviy omillari tashkil etishning huquqiy asoslarini mustahkamlanishi, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish uchun respublikada olib borilgan islohatlar, qarorlar, farmonlar va ularning amaldagi natijalari ilmiy asosda tahlil etilgan. Maqolada tadqiq etilayotgan mavzu yuzasidan N.A.Saidqulov, X.I.Abduraxmonovlar tadqiqot ishlarini olib borgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarda O'zbekistonda yoshlar siyosiy faolligi, siyosiy madaniyat, ma'naviy-mafkuraviy omillarini rivojlantirish o'r ganilgan. A.A.Jalilov, A.Z.Sharipov tomonidan esa yoshlarning innovatsion-kreativ yondashuvlari mustaqillik yillardagi jarayonlari umumiy tarzda tahlil etilgan. Mazkur ishimizda yuqorida sanab o'tilgan tadqiqotchilarning ishlari muhim manbaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli biz mazkur maqolada yoshlarning jamiyatimiz bosqaruvida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini tadqiq etishni asosiy maqsad etib qo'syidik. Shuningdek maqolada mustaqillikning dastlabki yillardagi respublikadagi va xozirgi kunda yoshlarga etibor aniq tahlillar asosida qiyosiy o'r ganilgan. Shuningdek olingan tahlil natijalari asosida yoshlar faolligini rivojlantirish, samaradorligini oshirishga doir taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kirish: Jahon miqyosida yoshlar siyosiy faolligi rivojlanishining samarali omillarini qamrab olgan, ijtimoiy-siyosiy, diniy, milliy va boshqa turdag'i qadriyatlarga asoslangan, jamiyatda ishonch omilini mustahkamlovchi fenomen sifatida mafkura omilini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilish tobora kuchayib bormoqda. Bugungi kunda yoshlar siyosiy dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning o'mi tobora ortib borayotganligi hech kimga sir emas. Ilm o'r ganish, ma'lumot olish uchun sharoit yaratib berayotgan axborot texnologiyalari, jumladan, Internet ham muammolar manbaiga aylanib borayotganini ta'kidlash zarur. Shu bois hozirgi kunda rivojlanigan mamlakatlarda yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini rivojlanish bilan ishlashning yangicha modellarini yaratish hamda ularni amalga oshirishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni yaratishga oid ko'plab ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekistonda yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlanirishni ma'naviy va mafkuraviy qadriyatlar uyg'unligida amalga oshirishni davr taqozo qilmoqda. "Mafkura sohasida bo'shlid degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonsoн qalbi, miyasi, ong-u tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinlar? Sunday oziqni u asta-sekin boshqa yodqan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti!"¹, deya aytigan e'tirof orqali ham anglashimiz mumkin. Shuningdek, hozirda rivojlanishning yangi davrini boshlagan mamlakatimiz uchun milliy mafkura konsepsiyasini yanada takomillashtirish va uni amaliyotga tatabiq etish mexanizmlarini zamonaviyлаstirish, uni sistemlari tarzda yangilib borish ushbu muammoni o'r ganishning ahamiyatini yanada oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldag'i PF-5106-son "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlari ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning tarraqqiyat strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari hamda 2017-yil 28-iyuldag'i PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlanirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida", 2018-yil 14-avgustdag'i PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini

sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 3-maydag'i PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarini amalga oshirishga mazkur maqolaga muayyan darajada xizmat qiladi.

Yoshlarning siyosiy madaniyatini rivojlanirishning mafkuraviy omillari haqidagi ilmiy asoslangan xulosalar O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarları va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma'ruza hamda nutqlarida aks etgan. Ushbu manbalar tadqiqot ishiga nazariy metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Jamiyatda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish mexanizmlari va madaniyatini rivojlanirish masalalariga oid tadqiqotlar ming yillik tarixga borib taqaladi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar, dastavval, qadimgi mutafakkirlar, jumladan, siyosatshunoslik faniga tamal toshini qo'ygan Konfutsiy, Platon, Aristotel va Abu Nasr Forobiy asarlarida uchraydi². Mazkur asarlarda garchi siyosiy madaniyat kategoriyasi ishlatalmagan bo'lsa-da, mutafakkirlar bilvosita siyosiy madaniyatga oid fikrlarni ilgari surganlar.

Adabiyotlar tahlili: Siyosatshunoslik faniga "siyosiy madaniyat" tushunchasining kirib kelishi nemis fasulyasi Logan Gerder (1744-1803 y.) nomi bilan bog'liq³. G'arbda "siyosiy madaniyat" kategoriyasining ilmiy-nazariy jihatdan o'rganiishini A.Almond va S.Verba boshlab bergan. G.Almond siyosiy madaniyatni "bu siyosiy tizimlarni ham o'z ichiga oluvchi siyosat ob'yektlariga nisbatan yo'naltirilganlikning o'ziga xos namunasidir", deb ko'rsatgan bo'Isa, S.Verba uni "siyosiy institutlar va siyosiy xulq-atrov ko'rinishlari to'g'risidagi e'tiqod tizimidir", deya ta'riflagan. G'arbda siyosiy madaniyat fenomenini tadqiq etishda A.Almond va S.Verbadan tashqari L.Pay, M.Veber, U.Razenbaum, D.Divyan kabi tadqiqotchi olimlarning ham hissasi katta.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)da yoshlarning siyosiy madaniyatni va jamiyat barqarorligi masalalari M.Keyzerov, V.Aberenkov, A.Averkin, Y.Ageshin, Y.Y.Meleshkina, O.A.Tolpigna, V.N.Gulyaixin kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan⁴. Mazkur tadqiqotlarning aksariyati siyosiy madaniyatning mohiyati, uning genezisiga bag'ishlangan.

Mamlakatimizda siyosiy madaniyat bo'yicha B.To'ychiyev, U.Muxammadiyev, X.Odilqoriyev va Sh.G'oyibnazarov kabi olimlar tadqiqot olib borishgan, ular siyosiy madaniyatga "Ijtimoiy sub'yeqt (jamiyat, guruh, shaxs)ning kuchlarini vujudga keltirish hamda ularni ijtimoiy-siyosiy faoliyatda, uning maqsadlarida, usullarida

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июнь куни Тошкент шаҳрида "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асрар – давр талаби" мавзусидаги ёнгумандаги сўзлаган нутқи. <http://ua.uz/oz/politics/vatanimiz-ta-diri-va-kelazhagi-y-lida-yana-namzhi-at-b-lib-15-06-2017>

²Каримов И.А. Асарлар тўплами. 1-24 жиллар. - Ташкент: Ўзбекистон, 1996 - 2016.

³Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Т.: Ўзбекистон, 2018. – 80 -б.

⁴Политический процесс: основные аспекты и способы анализа. Москва. 2001.стр.111; Гуляхин В.Н. Россия фукароларининг сиёсий маданиятининг аркетиллари // Социодинамика. - 2013. - № 1. стр. - 153 - 170.

va natijalarida ro'yobga chiqarish jarayonini ifoda etadi. U insонning ijtimoiy munosabatlарини o'zgartirish sub'yekti sifatidagi ijtimoiy rivojlanish mezonini o'chib beradi", deya ta'rif berishgan. Jumladan, B.To'ychiyevning fikricha, siyosiy madaniyat – ijtimoiy ong va umumiy madaniyatning siyosiy institutlar hamda siyosiy jarayonlar bilan uзви bog'liq bo'lgan qismi va jihatlarini qamrab oladi⁵. U.Muhammadiyev esa siyosiy madaniyatga fuqarolar, muayyan ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, elat, xalqning siyosiy hayotga bo'lgan munosabatida amal qidig'an qoidalari, taomillar, ijtimoiy hamda siyosiy mas'ullik hissi majmui sifatida qaraydi⁶.

O'zbekistonda fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning turli xil yo'naliш va komponentlarini Sh.Paxrutdinov N.Jo'rayev, I.Ergashev, T.Odilqoriyev, Sh.G'oyibnazarov, B.Tuychiyev, A.Jalilov, S.Jo'rayev, A.Qodirov, U.Idirov, I.Saifnazarov, M.Qirg'izboev, N.Umarova, T.Alimardonov, O.Jumayev, V.Kim, B.Iminov, G.Sherniyozova, L.Tangriyev, A.Xaydarov, U.Muxammadiyev, O.Musayev, N.Shodiyev, Sh.Raximov kabi olimlar o'rganishgan. Uлarning ishlarida siyosiy madaniyat siyosiy fanlar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Xususan, siyosiy fanlar doktori, professor Narzulla Jo'rayevning ta'kidlashicha, "Siyosiy madaniyat, siyosiy ong darajasi jamiyat hayotida inson ishtiroking qandayligini belgilaydi. Zotan, siyosiy madaniyat va siyosiy ong yuksak bo'lgan joyda odamlar hokimiyat ishida faolroq ishtirok etishadi. Qarorlar qanday qabul qilinishi, uning ijrosi qanday nazorat qilinayotganligini kuzatib borishadi, munosabat bildirishadi. O'z hayotlariga daxldor bo'lgan ma'muriy tadbirdarga befarq qarashmaydi. Aksinchal, ularni tayyorlashda ishtirok etishadi, natijada, qarorlar ijrosi uchun o'zlar manfaatdor sifatida mas'uliyatni his qilishadi". Fikrimizni davom ettirib, shuni aytish kerakki, N.Jo'rayev o'zining "Tarix falsafasining nazariy asoslari" nomli monografiyasida "Demokratiyaning siyosiy madaniyat" deganda, aholining siyosiy faoliyi darajasini ko'zda tutib, jamiyatda siyosiy madaniyatning shakllanishi siyosiy muhitga bevosita bog'liq, deb ta'kidlaydi⁷.

Mazkur ishlarning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini e'tirof etgan holda ta'kidlash joizki, ulardan keyingi o'tgan vaqt davomida bu borada mamlakatimiz yoshlari hayotida ulkan ahamiyatga molik islohotlar, tub o'zgarish va yangilanishlar amalga oshirildi.

Shunday qilib, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini rivojlantirish borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, lekin bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy faoliyini rivojlantirish bilan mafkura o'rtasidagi dialektik aloqadorlik masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Maqolada aynan fuqarolarning siyosiy madaniyatini rivojlantirishning mafkuraviy omillarini aniqlash, bu jarayonda milliy mafkura rolini kuchaytirish masalalari ilmiy tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot jarayonida ilmiy biliшhining tarixiylik, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, xronologik kabi usullaridan foydalanildi. Mustaqillik yillarda va keyingi davrlarda O'zbekistonda yoshlar siyosiy faolligining mafkuraviy omillarini tashkil etishning huquqiy asoslarni tashkil etishning huquqiy asoslarning mustahkamlanib borishi mavzusunu tadqiq etishda tadqiqotlar va mavzuga doir adabiyotlar hamda arxiv materiallari nazariy asos bo'lib xizmat qilgan. Mambalardan olingen ma'lumotlar tahlili mavzuga xolisona, ilmiylik va tarixiylik qoidasi asosida yondashuvni talab etadi. Yuqorida ta'kidlangan usullardan foydalanish natijasida quydagi ilmiy yangilik sifatida o'рганидди: yoshlarning siyosiy jarayonlardagi faol ishtirokin ta'minlash uchun "ko'ngilli yoshlar", "yosh islohotchi", "yosh siyosatchi" kabi guruhlarni ta'lim tizimida tashkil etish orqali yoshlar ongiga siyosiy mafkura, siyosiy an'analar, siyosiy tajribalar, siyosiy pluralizmga oid qarashlarni singdirish, ularda Vatanga nisbatan daxldorlik, mas'uliyat va fuqarolik tuyg'usining yuksalishiga xizmat qilishi dalilangan.

Tadqiqot natijalari: Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, asosiy vazifa – insонparvar, huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishdan iborat bo'ldi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar insон uchun, uning kelajagi uchun degan ezgu tamoyilni to'liq amalga oshirish biz uchun doim eng muhim ustuvor vazifa bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Shuningdek, bugungi kunda jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan har bir islohot, albatta, har bir fuqaroden ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faollikni talab etadi.

Jamiyatimizda siyosiy faoliy ortib bormoqda, barcha sohalarda

⁵Тўйчиев Б.Т."Политическая культура и демократизация общества".

Т.,2009.монаграфия.из.УЗМУ

⁶Муҳаммадиев У.Н."Ўзбекистонда сиёсий маданият ва миллий маънавиятнинг ўзаро муносабати муаммоси". Дисс.сиё. фан. Ном., Тошкент. ЎРПҲСМТИ, 2002. -104-6.

"Жўраев Н. "Тарих фалсафасининг назарий асослари" Тошкент: 2008. 48 б.

⁸ Ўзбекистон Республика Президенти Шавкат Мирзиёевининг 2017 йилининг 19 сентябрда Бирлашган Миллатлар Ташкилини боши Ассамблексининг 72-еессиясидаги нутки // <http://uz.a.uz-ЎзА-Ўзбекистон> Миллий ахборот агентлиги. 20.09.2017.

chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad – "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat hamda adolatli jamiyat barpo etishdan iborat⁸.

Siyosiy faoliyat – bu muayyan jamoaving manfaatlari shakllantirish va amalga oshirishdan iborat bo'lgan sub'yeqtarning faoliyati. Bunday maxsus manfaatlarni ifodalovchi muhim materiallar va intellektual resurslarga ega bo'lgan guruhlar – elita guruhlar hisoblanadi. Ijtimoiy elitalar siyosiy aloqalarni o'rnatishning o'ziga xos usuliga ega va bu maqsadga erishishga faol intilishadi.

Fuqaroviy faoliytni faoliyk nuqtayi nazaridan shartli ravishda darajalarga ham ajratish mumkin. Fuqaro mas'uliyatlari, ongi va vijdonli bo'lsa, u dastlabki pog'onada, ya'ni fuqaroviy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar qatoriga kirish mumkin. Agar fuqaroda atrofda bo'layotgan voqe'a-hodisalarga nisbatan ma'lum bir munosabati shakllangan bo'lsa, uni fuqaroviy pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxs sifatida e'tirof etish mumkin. Agar fuqaroda o'z haq-huquqlari hamda burchi uchun amaliy harakatni bajarish ko'nikmasi mavjud bo'lsa, uni faol fuqaro sirasiga kiritish mumkin.

Aynan ana shu so'nggi pog'onaning o'zi bir necha jihatlar bilan ajralib turadi. Faol fuqaro guruhiga mansub kishilar siyosiy va iqtisodiy tizim to'g'risida bilim olishga tayyor bo'lgan kishilardan iborat bo'ladı. Bundan tashqari ularda o'z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat hamda ana shu bilimlarni joriy qilish uchun ko'nikmalar mavjud bo'ladı⁹.

Siyosiy faoliytki tushunchasiga huquqshunoslar tomonidan berilgan ta'rifda siyosiy faoliytki – bu ijtimoiy-siyosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, saylovchilarning siyosiy jarayonlarga ishtirok etish darajalari va shakllaridir, deyiladi¹⁰.

Pixiologiya sohasida siyosiy faoliytki bu fuqarolarning hokimiyat bilan munosabatlarda ishtirok etish usullari deyiladi¹¹.

Siyosatshunoslikda esa siyosiy faoliytki shaxs va ijtimoiy guruhlarning o'z siyosiy mavqeyini yoki siyosiy atrof-muhimitin o'zgartirishga qaratilgan harakatlaridir, deyiladi. Siyosiy faoliytki tushunchasi amaliy va aqliy tarkibiy qismlarni o'zida birlashtiradi, amaliy jihatdan siyosiy munosabatlarni o'zgartirishga qaratilgan bo'lsa, aqliy jihatdan siyosiy bilim va tajribalarni to'plash, o'zaro shaxs yoki guruhlararo ma'lumot almashish masalalaridan iboratdir. Siyosiy faoliytki siyosiy faoliyatdagi o'zaro munosabatlarda, siyosiy jarayonlardagi o'zgarishlarda namoyon bo'ladı. Shaxsiy munosabatda shaxsning manfaati va qadriyatlariga ta'sir ko'rsatadigan turmush tarzini o'zgartirish bilan bog'liq siyosiy jarayonlardagi faol ishtiroki tushuniladi¹².

Siyosiy faoliytki – jamiyat siyosiy hayotidagi muhim masalalarda jamoaving maqsadlarga erishish uchun fuqarolar harakatlarining umumiyligidir. Ijtimoiy faoliytki funksional-tarkibiy tahlilida, jamoaving maqsadlardan tashqari ijtimoiy guruhlar sinifiy maqsadlariga erishishda ham namoyon bo'ladı.

Faoliytki eng oddiy shakli bu siyosatga qiziqishdir. Bundan faolroq shakli bu mitinglarda ishtirok etish, nutq so'zlash, siyosiy partiyalar faoliyatida faol ishtirok etish, siyosiy-ijtimoiy markazlarning faol a'zosi bo'lish, turli ijtimoiy loyihalarda qatnashish, turli ommaviy harakatlarda ishtirok etish, saylovlarda muntazam ovoz berishdir. Bugungi globallashuv jarayonida internet tizimida ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi yuqoridagi faoliyatlarini bevosita to'g'ridan-to'g'ri onlaysa amalga oshirish imkonini beradi, bu ham fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning yanada faollashishiga turki bo'ladigan "onlaysa faoliytki" jumlasini keltirib chiqaradi. Onlaysa siyosiy faoliytki bu – faol fuqarolarning turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib ommaviy murojaat qilishda qatnashish, saylovlarda onlaysa qatnashish, siyosiy jarayonlarni turli tarmoqlarda do'star bilan muhokama qilish, turli davlat ahamiyatiga molik dasturlar va boshqa masalalarda faol ishtirok etish hamda o'z xohish, istaklarini namoyon qilishdir.

Siyosiy faoliytki borasida turli xil nazariy va amaliy ta'riflar o'рганилганда, shunday xulosaga kelinadi, ya'ni ularning bari fuqarodan faoliytki talab qiladi.

Jumladan, jamiyatda fuqarolarning siyosiy faoliytki ikki xil kategoriya bo'linadi. Birinchi kategoriya bu saylov jarayonlaridagi targ'ibotlarda ishtirok etish, saylovlarda ovoz berish va lobbistik faoliyatlarida ishtirok etishdir.

Ikkinci kategoriya esa bir necha turdag'i siyosiy faoliytki bo'lib, bu

⁹Фуқаролик жамияти асослари. Ўқув қўйламна / А.Жалилов, У.Муҳаммадиев, Қ.Жўраев ва бошк. – Тошкент, 2015. – 264 б. – Б. 86.

¹⁰https://yuridicheskaya_encyclopedia.asademic.ru/

¹¹[https://politikal_psychology.asacademic.ru/](https://politikal_psychology.asademic.ru/)

¹²Политология. Словарь. – М.: РГУ. В.Н.Коновалов, 2010.

demonstratsiya, ommaviy harakatlar, biror bir faoliyat bo'yicha ish tashlashlar, boykot e'lon qilish, siyosiy zo'ravonlikka qarshi harakatlar, protestlar uyuştirish kabilardan iboratdir¹³.

Siyosiy faollikning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri bu lobbizm harakatlardir. Lobbizm (inglizcha lobby – kulular, xos xonalar)¹⁴ – o'ziga xos faoliyat turi bo'lib, fuqarolar yoki nodavlat tashkilotlari vakillarining davlat organlari tomonidan tegishli qaror qabul qilinishida maqsadli ta'siridir.

Siyosiy madaniyat esa o'z ichiga siyosiy bilimlar doirasidagi an'analar, qadriyatlar, siyosiy xulq-atvollar birligini mujassam etganligi bois, uning mayjudligi davlat va jamiyatning taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qilishimi bildiradi. Ammo bu jarayon murakkab va xilmalilik xususiyatiga ega. Chunki siyosiy tizimlar, an'analar har bir xalq, millat uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy madaniyat vaunga ta'sir etuvchi mafkuraviy omillar o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni o'rganish ancha murakkab ish hisoblanadi. Shunga ko'ra, taddiqotda ishni, eng avvalo, mazkur tushunchalar mazmun-mohiyatini o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar: Biz bugun Yangi O'zbekiston jamiyatini qurish yo'lida harakat qilmoqdamiz. Shu bois har bir fuqaro taraqqiyot strategiyasini bilmog'i, anglamog'i va uni hayotga joriy etmog uchun o'zining bor imkoniyatlarini shu ishga safarbar etmog'i lozim.

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, jamiyat hayotining demokratlashuvida har qanday yoshlardan faollik talab etiladi, chunki fuqaroning o'zi yashash uchun qulay bo'lgan muhitni yaratishga intilishi, mavjud ijtimoiy, siyosiy muammolarni hal etish yo'llarini

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июнь куни Тошкент шаҳрида “Ижтимоий баркарорликни таъминлаш, мukaddas dinimizning soғifligini асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутки. <http://uza.uz/oz/politics/vatanimiz-ta-dir-i-va-kelazhagi-y-lida-yanada-amzhi-at-b-lib--15-06-2017>

2. Каримов И.А. Асаарлар тўплами. 1-24 жиллар. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996 - 2016.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Т.: Ўзбекистон, 2018. – 80 -б.

4. Политический процесс: основные аспекты и способы анализа. Москва. 2001.стр.111; Гуляихин В.Н. Россия фуқароларининг сиёсий маданиятининг аркетиплари // Социодинамика. - 2013. - № 1. стр. - 153 - 170.

5.Тўйчиев Б.Т.”Политическая культура и демократизация общества”. Т.,2009г.монография.из.УЗМУ

6.Мухаммадиев У.Н.”Ўзбекистонда сиёсий маданият ва

bilishi, shu yo'lida tashabbuskorlik ko'rsata oladigan fuqaro faol fuqaroga aylanadi.

Yoshlarda dunyoqarashning o'zgarishi bu bevosita ijtimoiy hayotning ham o'zgarishidir. Jamiyat hayotidagi o'zgarishlar bu fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolroq ishtirot etishiga bog'liqidir. Agar fuqarolar jamiyatda demokratiyani yuksak qadriyat deb bilib, demokratik jarayonlarda faol ishtirot etsa, bunday jamiyat barqaror jamiyatga aylanadi. O'z-o'zidan faollik ham kuchayadi. Demokratik jarayonlar va fuqarolarning siyosiy faolligi o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. Shunday ekan, yoshlarning siyosiy faolligini oshirish orqali jamiyat hayoti yanada demokratlashtiriladi. Demokratik jarayonlarda fuqarolarning faollik darajasi siyosiy jarayonlarning bir mezoni bo'lib xizmat qiladi. Faollik darajasi qanchalik oshgani sari fuqarolarning jamiyat oldidagi mas'uliyati ham oshib boradi.

Siyosiy faol fuqaro o'zi bilan birga jamiyat a'zolarini ham ergashtiradi, jamiyatning demokratik instituti orqali jamoaviy guruhlarning ehtiyoj va manfaatlariga birgalikda echim topadi, bu esa faollikning tezlashuvini anglatadi. Ayniqsa, bugungi shiddatli rivojlanish jarayonida siyosiy faollikni oshirishda innovatsion-ijtimoiy g'oyalarni qo'llash davr talabidir, ya'ni onlayn demokratiya tizimini qo'llash fuqarolarning faollashishiga turki bo'ladigan o'ziga xos omillardandir. Siyosiy jarayonlarda siyosiy faollikni kuchaytirish uchun, avvalo, fuqarolarda siyosiy ong, ishonch va natijadorlik mavjud bo'lishi lozim. Siyosiy faollik mavjud jamiyatda jamiyat demokratlashuvni kuchayadi.

миллий маънавиятнинг ўзаро муносабати муаммоси”. Дисс.сиё. фан. Ном., Тошкент. ЎРПХСМТИ, 2002. -104-б.

7. Жўраев Н. “Тарих фалсафасининг назарий асослари” Тошкент: 2008. 48 б.

8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йилнинг 19 сентябрида Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутки // <http://uza.uz-ЎзА-Ўзбекистон> Миллий ахборот агентлиги. 20.09.2017.

9. Фуқаролик жамияти асослари. Ўкув кўлланма / А.Жалилов, У.Мухаммадиев, Қ.Жўраев ва бошқ. – Тошкент, 2015. – 264 б. – Б. 86.

10. [https://yuridicheskaya_encyclopedia.asacademic.ru/](https://yuridicheskaya_encyclopedia.asademic.ru/)

11.https://politisal_psychology.asacademic.ru/

12. Политология. Словарь. – М.: РГУ. В.Н.Коновалов, 2010.

13.Жиро Т. Политология. – Харьков, 2006. – 428 с. – С. 90.

14.Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 5-том. – Т., 2003. – 300-6.

¹³Жиро Т. Политология. – Харьков, 2006. – 428 с. – С. 90.

¹⁴“Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 5-том. – Т., 2003. – 300-6.